

## O'QUVCHI YOSHLARDA AKSIOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Xolov Olimjon Chorshamiyevich**

*Termiz davlat universiteti*

*"Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Ma'lumki, har qaysi xalq o'z farzandlarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib bu borada bor kuch g'ayratini ayamaydi. Chunki har bir xalqning o'tmishi, yashash tarzi uning ko'p asrlik qadriyatlarini bugungi kun yoshlari tomonidan qadrlanishi va ular orqali keyingi avlodga yetib borishini istaydi.

Bu borada avvalo aksiologik ongi shakllantirish yoshlarda qadriyatlarga bo'lgan ongli munosabati, qadriyatlarni o'rganishga qiziqishi, bilimi, xulq atvorida namoyon bo'lishi va albatta hayot turmush tarzida boyitib borishi lozimdir.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Aksiologiya nima va uning mazmuni, mohiyati qanday ma'noni anglatadi? Haqiqatdan ham bunday savol tug'ilishi tabiiydir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib aksiologiya tushunchasiga va bu borada olib borilgan tadqiqot ishlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biri bo'lib, ushbu tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Aksiologiya yunoncha so'z bo'lib, "axio - qadriyat, logos – ta'limot", so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi [8, 18-b.].

Qadriyat borasida so'z yuritilganda avvalo milliy qadriyatlarimizga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Milliy qadriyatlarimizda urf-odat, an'ana, oila va qarindoshlik munosabatlari, milliy odob-axloq, kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish milliy xususiyatimizda asosiy qoida bo'lib shakllangan.

Darhaqiqat, qadriyat - voqyelikdagi muayyan hodisalarining umuminsoniy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Insonlar uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, sog'lik, tinchlik, erkinlik, yaxshilik,adolat, haqiqat, ma'rifat, ijtimoiy tenglik, go'zallik, moddiy boylik, ma'naviy boylik, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatlarga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, ushbu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan [7, 192 c.].





Qadriyatlar tizimini umumbashariy, milliy va shaxsiy yondashuvlardan kelib chiqib tasniflash mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega bo'lib, bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Dunyodagi har qaysi xalq, millat va elat, uning turmush tarzi, diniy e'tiqodi, o'z tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat hamda an'analari, ota bobolarining o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar milliy qadriyatlar sifatida e'tirof etiladi. Har bir shaxsning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, hayotining ma'nosi, odob-axloqi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyat sifatida namayon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki o'quvchi yoshlarda aksiologik ongni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi ishlar bugun yoki yaqin o'tmishda dolzarb bo'lib qolmagan. Ushbu muammo yuzasidan tarixga nazar soladigan bo'lsak uning ildizi uzoq o'tmishda ham muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs ongini shakllantirish va qadriyatli dunyoqarashni barqaror rivojlantirishning nazariy-tarixiy asoslari eng qadimgi yozma manbaa "Avesto" hamda Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvar olimlarining asarlarida yoritilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlari, an'ana va qadriyatları, tili, dini, ta'lim-tarbiyasi va umuman olganda pedagogik qarashlarni o'rganishimiz uchun beباho yozma manba desak ayni haqiqatdir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto" yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hyech kim inkor etolmaydi» [6, 137-b.].

Albatta, "Avesto" da qat'iy qonunlarga amal qilingan va shu o'rinda inson axloqining asosiy uchligini ezgu fikri, ezgu so'zi, ezgu amali sifatida bayon etilganligida ham katta mazmun bor. Bu borada bo'lajak o'quvchilarda sonogen tafakkurni shakllantirish texnologiyasi mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan olim M.K.Ismailov birgina "ezgu fikr" borasida - niyatning yaxshiligi, o'zgalarga nisbatan yaxshi fikr va munosabatda bo'lish, zarur bo'lganida ularga madad beruvchi so'zlarni aytish, kishilar baxt-saodati uchun boshqalarga nisbatan yaxshi o'y fikrda



bo'lish hamda doim shunday bo'lib qolishga intilishdir. Ezgu fikrli inson jaholatga tushmaydi hamisha yaxshilik ulashuvchi bo'ladi" [5, 167-b.].

Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki "Avesto"da sog'lom fikrlashning o'zi ham alohida qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Bu esa barcha yaxshiliklar avvalo insonning sonogen taffakuri asosida yuzaga kelishini anglatadi.

Shuningdek "Avesto" da yer, olov, suv va havo muqaddas sanalib uni ifloslantirish qattiq gunoh ekanligi ta'kidlanadi. Umuman olganda "Avesto" kitobi yoshlarni butun umri davomida yuqorida ta'kidlangan to'rt unsurni, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrab avaylashga undaydi.

Shu o'rinda aytish kerakki, "Avesto" da qiz bolalar tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi: "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o'rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Chunki ular o'zlari tug'ilgan xonadonda ota ro'zg'orini tartibga solib, uyga ziynat berib yursalar, jufti haloli uyiga borgach, kelajak nasl, ya'ni farzandlari tarbiysi, ta'limi bilan mashg'ul bolmoqlari lozim bo'ladi" [9, 499-b.].

Yuqorida keltirilgan dalillar shundan dalolat beradiki "Avesto" da yoshlarni aqlan yetuk bo'lishiga, hikmat o'rganishiga, ma'naviy sof bo'lishiga, yaxshilik qilish, qalbida ezgulik xislatlarini barq urushi, axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, vatanparvarlik, rostgo'ylik, saxiylik kabi fazilatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qadimgi davr va hozirgi zamonda ham har bir xalqning bola tarbiyalashda qadriyatli yondashuvni ustuvor ekanligini anglatadi.

Islom dinining muqaddas kitobi "Quron" va undan keyin turuvchi Hadis axloqiy manbaa hisoblanib, unda butun borliq va insoniyat haqidagi qadriyatni ko'ramiz. Shuni ham ta'kidlash joizki, "Quron" va Hadislardagi manbalarning barchasi qadriyatdir.

Xususan "Quroni Karim" da inson eng oliy qadriyat ekanligi aytiladi. "Quroni Karim"ning Isro surasi 70-oyatida "Batahqiq, Biz bani Odamni azizu mukarram qilib qo'yidik va ularni quruqligu dengizda (ulov-la) ko'tardik hamda ularni pok narsalar ila rizqlantirdik va uni o'zimiz yaratgan ko'p narsalardan mutlaqo afzal qilib qo'yidik" [12, 441-b.]. Ushbu oyatdan ma'lum bo'ladiki avvalo insonning o'zi eng oliy qadriyatdir.

Hadislarda ham xalqimizning milliy tarbiyasida mujassam bo'lgan qadrlash, hurmat, e'zozlash ko'p bor ta'kidlangan. Aynan shulardan biri, biz uchun qadirli bo'lgan ota-onalarimizga hurmat ko'rsatish va ularning duosini olish haqidadir. Imam Ismoil al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" kitobida keltirilgan kitobda, shunday Hadis bor. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Xor bo'lsin, xor bo'lsin, xor bo'lsin!" - deb o'n marotaba takror qildilar. Shunda sahobiylar: "Yo Rasululloh,





kimni aytayapsiz?" - deb so'rashdi. Rasululloh (s.a.v.): "Ota-onasining ikkalasi yoxud bittalari keksayib qolgan vaqtida (ularni rozi qilmay) o'zini do'zaxga tushishga mubtalo qilgan kishini" dedilar [4, 5-b.]. Ushbu hadisdan ko'rindanidiki har bir inson o'z ota-onasini rozi qilishi va duolarini olishi kerak.

Qadriyatlar borasida so'z yuritilganda milliy tariximiz va dunyo svilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan Imom Ismoil al Buxoriy, Muhammad Iso at Termizi, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari orqali o'quvchi yoshlarda aksiologik ongni shakllantirishda keng foydalanish mumkin.

Shu o'rinda Abu Nasr Forobiyning ma'naviy merosida keltirilgan 12 ta xislat va fazilatini sanab o'tish mumkin. Unda mutafakkir tamonidan yoshlar tarbiyasida "sog'lomlik, farosatlilik, kuchli xotira, zukkolik, notiqlik, ma'rifatga intilish, nafsni jilovlash, haqiqatni sevish, oriyatlilik, mol-dunyo ketidan quvmaslik, adolatparvarlik, qat'iyatlilik va jasurlik"ni mujassam qilish va ularda ushbu xuxusiyatni qadriyatga aylantirilishi zarurligini ta'kidlagan. Forobiy ta'kidlagan bu fazilatlar bugungi kunda yoshlar tarbiyasida aksiologik jihatdan keng tushunchalarni qamrab oladi [1, 222-b.].

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida xalq og'zaki ijodi namunasidan foydalanilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarda yunon, rumliklar, eroniylar, xorazmliklar, xristiyan va yaxudiylar hamda islomgacha bo'lgan arablarning yil hisoblari, yashash turmush tarzi, urf odatlari tasvirlangan. Mutafakkir bu asarni yozish juda qiyin ekanligini, qadimgi xalqlarni o'rganishda rivoyat va afsonalarga tayanish kerakligi ammo ularda chalkashliklar, asossiz ma'lumotlar hamda bo'rtirmalar mavjudligi bilan izohlaydi. Beruniy qadimgi xalqlarni o'rganishning eng to'g'ri yo'li "Rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini, so'ngra yaqinroq va mashhurroq'ini birin-ketin olib borishimiz lozim, ularni o'z arboblaridan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holicha qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni qidiruvchi va hikmatni sezuvchining ulardan boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishiga yordamchi va bizga tuyassar bo'lmagan narsalarga erishish uchun yo'lovchi bo'ladi" deb ta'kidlagan [2, 96-b.].

Ko'rindanidiki asar yaratilishida xalq og'zaki ijodidan keng foydalanilgan bo'lib, bugungi kunda biz ham ushbu jihatga alohida e'tibor qaratsak, yoshlarda milliy qadriyatlarni yanada shakllanishida muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilishini anglab etamiz. Chunki har bir xalqga tegishli bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari uning butun o'tmishini tarannum etadi.





Mahmudxo'ja Behbudiyning fikricha, Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avvalo avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga milliy qadriyatlarni tiklash orqaligina erishish mumkin. U shunday yozadi: "Madomiki, bizlar tarbiyasiz bolalarimizni o'qitmaymiz, yomon xodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo xukmron bo'lsa kerak. Bu ishlarni yo'q bo'lmoq'iga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'qdir". Shuningdek "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilm fanidan bebaxra millat, boshqa millatlarga paymol bo'lur" deydi [3, 280-b.].

Bu fikrlar esa ta'limiylar qadriyatlarga nechog'lik ahamiyat qaratish lozimligini anglatadi.

Qadriyatli yondashuv har bir xalq uchun muhim sanaladi va albatta yoshlarda aksilogik ongni shakllantirish muhim hisoblanadi. Biz o'z tadqiqotimiz doirasida O'zbekiston va xorijlik olimlar tomonidan ko'plab qadriyatli yondashuvlar borasidagi tadqiqot ishlarining mazmunini o'rgandik.

Qadriyatlarni o'rganar ekanmiz qadriyat tushunchasi falsafa, sotsiologiya hamda psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'ziga xos jihatdan izohlanganishini tushunib etdik.

Misol uchun O'zbekiston Respublikasining faylasuf olimlari Q.Nazarov, J.Tulenov, E.Yusupov, A.Begmatov, M.Bekmuradov, M.Qahhorova, M.A.Nurmatovalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek ular tomonidan chop etilgan o'quv qo'llanma va darsliklar mazmunida qadriyatlar falsafasi, aksilogiyaning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, jamiyatimizni ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlantirish, ma'nnaviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, oliy talim talabalarida qadriyatli yo'nalganlikni tarkib toptirishning falsafiy hamda sotsiologik tamonlari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarida qadriyatli yo'nalganlikni namoyon bo'lishi, shaxsning ma'nnaviy kamol topishida etika-estetika va axloqiy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash muammolari yoritib berilgan.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki Respublikamizning pedagog olimlari B.Qodirov, B.Adizov, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, D.Ro'zieva, X.J.Xudoyqulov, B.Xodjaev, M.Bozorova, M.Quronov, Sh.Z.Taylanova, A.D.Aliyarov, D.X.Kosimova, Z.B.Jalilov, G.A.Xolboeva, A.T.Tilegenov, S.U.Kistaubaevlar tomonidan milliy, umuminsoniy, ma'nnaviy-axloqiy, kasbiy, shaxsiy, oilaviy qadriyatlar tizimini shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimi va ma'nnaviy qadriyatlarni rivojlantirish, o'quvchilarda ma'nnaviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish, tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish, xalq og'zaki ijodi asarlari tahlili orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish tamoyillari, xalq og'zaki ijodi namunalarining ma'lum bir





vositasi asosida o'smirlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammolarining ayrim pedagogik jihatlari o'rganilgan bo'lsa, psixolog olimlardan Sh.Barofov, V.Karimova, N.Safaev, E.G'oziev, G.Shoumarov, R.Sunnatovalar esa shaxsda qadriyatlar tizimi shakllanishining psixologik xususiyatlarini tadqiq etishgan [10, 5-b.].

Shuningdek Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari I.Isaev, G.A.Melekesov, N.A.Popovanova, L.V.Vershinina, S.I.Rabazonov, O.A.Sidorenko, R.A.Gromov, R.A.Murtazin, Z.Ravkin, N.Rozov, V.Slastenin, I.Surina, L.A.Grigureva, Ye.Shiyanov, M.Kagan, Ye.A.Osipovalar qadriyatlar tizimini aniqlashtirish, ta'limga aksiologik yondashuvni joriy etish hamda kasbiy qadriylatlarni shakllantirish, shaxs dunyoqarashi, jamiyatning aksiologik asoslari va uning turli jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa, xorijlik olimlar B.Wilson, J.M.Gottman, J.Kim, V.A.Kanke, T.Parsonslar shaxs xulq-atvori va strategiyalarining o'zaro aloqadorligi, shaxs rivojining intellektual, motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va qadriyatli yo'nalishlarining o'ziga xosliklarini o'rganishgan [11, 22-b.].

Yuqorida keltirib o'tilgan misol va tadqiqotchi-olimlarning ilmiy izlanishlari ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchi yoshlarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o'quvchi yoshlarda aksiologik ongi shakllantirish va uni rivojlantirish har qanday davrda dolzarb masala bo'lib kelgan va u uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Bu esa uning har qaysi davrda muhim ahamiyat kasb etganligidan guvoh beradi. Ayniqsa bu masala, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillarning ko'payib borishi uning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Chunki, o'quvchi-yoshlarda aksiologik ong masalasi ularda - voqeylekdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini tushunish, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifikat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat, millatlararo tinchlik-totuvlik, bag'rikenglik, diniy erkinlik va boshqa qadriyatli tushunchalarni singdiriadi. Sunday ekan o'quvchi yoshlarda aksiologik ongi shakllantirishni pedagogik jarayonda yanada keng singdirish davr talabi bo'lib, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 260 bet.



- 
2. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 174 bet.
  3. Ataeva N.S., Rasulova F., Salaeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I-kitob. Toshkent.: "Fan va texnologiya", 2012. – 928 bet.
  4. Imom Ismoil al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad". 10-bob, 21-hadis. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. – 11 bet.
  5. Ismailov M.K. (2021). REFLECTIVE TECHNOLOGIES OF DEVELOPMENT OF SANOGEN THINKING IN STUDENTS. In *НАУКА И СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ* (pp.167-170).
  6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 1997. - 137-b.
  7. Сластёгин В.А "Введение в педагогическую аксиологию". – М. Издательский центр "Академия", 2003. - 371 с.
  8. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: Fan va texnologiya, 2011. - 156 bet.
  9. Xolov O.Ch. (2021). XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA AKSIOLOGIK ONGNI SHAKILLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), p.498-508.
  10. Xolov Olimjon Chorshamiyevich "Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Termiz. 2022. – 131 bet.
  11. Xolov Olimjon Chorshamiyevich "Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz. 2022. – 58 bet.
  12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri hilol". Ikkinci nashr, 3-juz. - Toshkent.: "Sharq" nashriyoti, 2009. – 506 bet.

